

"GAS CHEMICAL COMPLEX MTO CENTRAL ASIA" MCHJning TA'MINOT ZANJIRI SOHASIDAGI SIYOSATI

Siyosatning maqsadi - Kompaniyaning ta'minot zanjirini yaratish va boshqarishda kerak bo'lgan asosiy tamoyillarni aniqlashdir. Siyosat Kompaniyaning ishlab chiqaruvchilar, etkazib beruvchilar va pudratchilarni tanlashga bo'lgan yondashuvini belgilaydi, farovonlik, atrof-muhit va inson huquqlarini ta'minlash nuqtai nazaridan ta'minot zanjirining asosiy talablarini o'rnatadi.

ASOSIY TAMOIYILLAR

Kompaniya o'zining ob'ektlari uchun uskunalar, materiallar, xizmatlarni ishlab chiqaruvchilar va etkazib beruvchilarni tanlashga katta e'tibor beradi va ulardan biznes etikasining yuqori standartlariga rioya qilishlarini kutadi.

Ishlarni qonuniy va halol olib borish. Kompaniya bilan uzoq muddatli hamkorlik qilish maqsadida asbob-uskunalar, materiallar va xizmatlarni ishlab chiqaruvchilar va etkazib beruvchilar o'zlari faoliyat yuritayotgan mamlakatlarning qonunchilik talablariga, shu jumladan korrupsiyaga qarshi kurashish, poraxo'rlik, sanksiyalar va eksport-import cheklovlariga rioya qilishlari shart. Yetkazib beruvchilar ish vaqtida va ish vaqtdan tashqari Kompaniya xodimlariga qimmatbaho va noo'rin sovg'alar, pul va taklifnomalarni berishdan, hamda xodimlarni dam olishini tashkil qilishdan bosh tortishlari kerak.

Inson huquqlariga rioya qilish. Kompaniya o'z ishlab chiqaruvchilari va etkazib beruvchilaridan asosiy inson huquqlari – teng imkoniyatlar huquqi, majburiy mehnatni rad qilish huquqi, mehnat uchun haq olish huquqiga va BMTning Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasida ko'rsatilgan boshqa huquqlarga rioya qilinishini kutmoqda.

Mehnatni muhofaza qilish, xavfsizlik va atrof-muhitni muhofaza qilish. Kompaniya faqat sanoat xavfsizligi, mehnatni muhofaza qilish va sog'liqni saqlash va atrof-muhitni muhofaza qilish qoidalariga rioya qiladigan ishlab chiqaruvchilar va etkazib beruvchilar bilan uzoq muddatli munosabatlarni o'rnatadi.

Ushbu Siyosat qoidalariga rioya qilinmasa, Kompaniya shartnoma munosabatlarini bekor qilish huquqini o'zida saqlab qoladi.

Yaxshi qurilgan ta'minot zanjiri biznes barqarorligining kalitidir.

"Gas Chemical Complex MTO Central Asia" MCHJning

Bosh direktori

M. M. Shakirov